

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.Yodgorov**

Misrning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash xususiyatlari ..... 551

**Sh.Latipov**

Autentik matnda lakanalarning ifodalanishi ..... 548

**M.Baybaeva, I.Imomov**

Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik tuzilmali modeli ..... 551

**F.Temirov**

Sadiddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari ..... 555

**X.Qodirov, N.Abdullajonova**

Hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik hususiyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati ..... 560

**M.A.Abdumalikova**

"Ming Bir Kecha" - sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi ..... 564

**M.A.Fayzullaeva**

Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy tahlili ..... 567

**B.Abdullayev**

Farg'ona vodiysi so'ngi Bronza va Ilk temir davrida ..... 572

**S.M.Isroilova**

Oliy o'quv yurtlari talabalarida etakchilik fazilatlarini shakllantirish ..... 586

**Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov**

In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish ..... 589

**D.R.Uralov**

Tog'ay Murod qissa va romanlarini o'qitishning hozirgi kundagi dolzarb jihatlari ..... 593

**M.F.Nishonov, O.M.Umarova**

*Chicorium intybus L.* o'simligining elementlar tarkibi va miqdorini o'rganish ..... 598

**E.X.Bozorov, A.N.Jo'lliyev**

Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda "Venn diagrammasi" usulidan foydalanish ..... 602

**M.M.Bokiyev, I.R.Asqarov**

Ateroskleroz kasalligini davolashda ayrim sintetik dorilar va yerqalampirni ahamiyati ..... 606

**R.A.Abdukarimova**

Oilaning ijtimoyilashuvida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning falsafiy mohiyati ..... 609

## OILANING IJTIMOYILASHUVIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY MOHIYATI

### ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ В СОЦИАЛИЗАЦИИ СЕМЬИ

### THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS IN THE IMPLEMENTATION OF THE FAMILY

**Abdukarimova Roxila Abdurayimovna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Abdukarimova Roxila Abdurayimovna**

– Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy ish yonalishi talabasi.

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada oilaning ijtimoilashuvi jarayonida yoshlar tadbirkorlik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilingan. Shuningdek, mamlakatimiz yangi taraqqiyot davrida oilada tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish va fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarda tadbirkorlik sohasidagi bilim hamda kasbiy ko'nikmalarini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni borishi haqida bayon qilingan. Olib borilgan taddiqotlar natijasida oila ijtimoyilashuvida tadbirkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid bir-qator taklif hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

#### **Аннотация**

В данной статье предпринята попытка научно-теоретического исследования социально-философских основ формирования и развития предпринимательских знаний и навыков молодежи в процессе социализации семьи. Также было заявлено о том, что в период нового развития наша страна будет проводить реформы по повышению предпринимательских навыков в семье и знаний и профессиональных навыков в сфере предпринимательства среди наших граждан, особенно молодежи. В результате проведенных исследований был дан ряд предложений и практических рекомендаций по совершенствованию предпринимательских навыков в семейной социализации.

#### **Abstract**

In this article, in the process of socialization of the family, it was tried to scientifically-theoretically study the socio-philosophical foundations of the formation and development of entrepreneurial knowledge and skills of young people. It was also stated that our country will go through the reforms carried out in the period of new development in the field of improving entrepreneurial skills in the family and improving the knowledge and professional skills of our citizens, especially young people in the field of entrepreneurship. As a result of the research carried out, a number of proposals and practical recommendations regarding the improvement of entrepreneurial skills in Family Promotion have been made.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, tadbirkorlik ko'nikmasi, innovasiya, taraqqiyot, omil, ijtimoyilashuv, usul, vosita, tarbiya, yosh avlod, fuqaro, sub'eクト, ob'eクト, element, oila.

**Ключевые слова:** предпринимательство, предпринимательский навык, инновация, прогресс, фактор, социализация, метод, средство, воспитание, молодое поколение, гражданин, субъект, объект, элемент, семья.

**Key words:** entrepreneurship, entrepreneurial skills, innovation, development, factor, socialization, method, tool, upbringing, younger generation, citizen, subject, object, element, family.

#### **KIRISH**

Oilada tadbirkorlik munosabatlarga bo'lgan qiziqishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy-meyoriy bazani takomillashtirish ishlari izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonda oila institutining mustahkamlash, xususan yoshlar oid davlat siyosatini yanada faollashtirish yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi masalarini ijobjiy hal qilish, oilaning ijtimoyilashuviga, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatiga, oilaviy biznesga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyati rivojlanirilmoxda. Yoshlarning oila va jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish, ilg'or xorijiy tajribaga tayangan tadbirkorlik yo'nalishlarini yanada rivojlanirishning ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishni davrning o'zi taqozo etayapti. Shu sababli oila vakillari, ya'ni yoshlarda noan'anaviy bo'lgan innovasion tadbirkorlik shakllarini rivojlanirish quyidagi omillarga aloqador bo'lib:

*birinchidan*, yoshlardagi milliy mentalitetga sodiqlik, unga xos bo'lgan xususiyatlarning yoshlar tadbirkorlik faoliyatida, ayniqsa yoshlarning oilaviy biznes bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lishi;

*ikkinchidan*, yoshlarda oilaviy tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali jamiyat taraqqiyotining xususiyatlari aks etganligi, jumladan, xalqaro integrasiyaga asoslangan modernizasiyalashuv, biznes faoliyatining kengayishi bilan xarakterlanadi;

*uchinchidan*, yosh tadbirkorlarning o'z faoliyatida jamiyatda shakllangan ilmiy texnik potensialdan samarali foydalanganligi bilan belgilanadi;

*to'rtinchidan*, biznes va shu jumladan, oilaviy ishbilarmonlikda zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyasidan samarali foydalanish natijasida yosh tadbirkorlar moddiy, nazariy va amaliy qadriyatlardan foydalanishi uchun imkoniyatlar darajasi kengayadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yosh tadbirkorlarning innovation mazmundagi tadbirkorlik faoliyati uchun axborot kommunikativ madaniyati muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon, oilaviy biznesda samarali faoliyat yuritish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, jamiyatimizda, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni olib borish jarayoni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, milliy mentalitetning yosh tadbirkorlarga xos bo'lgan shijoati, maqsadi yo'lida samarali mehnat qilishi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga sodiqligida namoyon bo'ladi. Bizning tarixiy madaniy urf odatlarimiz, yosh tadbirkorlarda o'zining shaxsiy imkoniyatlariga ishonishi, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun intellektual saloxiyatini ishga solishi, ba'zi xollarda tavakkalchilik qilishdan qo'rmasligi, faoliyatida zamonaviy innovationlardan foydalanish uchun o'z malakasini muntazam oshirish zaruriyatini anglashi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon o'z navbatida, O'zbekiston yoshlariga xos bo'lgan, yangi O'zbekiston kelajagi uchun saloxiyali, innovation mazmundagi, yaratuvchilik moxiyati bilan sug'orilgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqdir, xamda ushbu jarayon mamlakatimizdag'i, hozirgi davrda olib borilayotgan, oilaviy biznes taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarda xam o'z aksini topmoqda. Oilaviy biznes soxiblari mehnatining muhim xususiyati, unda boshlangan, olib borilayotgan faoliyat davomida xar bir tadbirkorning bajarilayotgan ish uchun shaxsiy javobgarligini oshirish zaruriyatini muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining chuqurlashish jarayoni, ba'zi xollarda tavakkalchilikka asoslangan, kutilmaganda vujudga kelgan muammolar bo'yicha maxsus qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Bunday jarayon xar bir tadbirkordan sifatli tovarlar sotilishi uchun mo'ljallangan bozorlarni topish, u erda doimiy faoliyat olib borish uchun harakat qilish, muayyan darajada dividend olish uchun kurash olib borish, muntazam sur'atda o'zgarib turadigan tashqi ta'sirlarga chidamlilik immunitetini shakllantirishni talab qiladi. Tadbirkorlik sub'ektlari raxbarlari, ba'zi xollarda har bir tadbirkorning shaxsan o'zi boshqa iqtisodiy tizimlar, ularning raxbarlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish zaruriyatini vujudga keltiridi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yosh tadbirkorlar faoliyatida, madaniy xususiyatlarga alohida e'tibor berish xolati mavjud bo'lib, ular muayyan darajada ijodiy faoliyatga muhim o'r'in ajratadilar. Bunday munosabat o'z navbatida, tovarlarning raqobatbardoshligini oshiradi, tashqi ta'sirlarni muayyan darajada kamaytiradi. Shuningdek, yosh tadbirkorlar o'zining mental xususiyatlaridan kelib chiqib, faoliyati davomida, yuqori obro'ga erishish uchun harakat qiladi, hamkorlari orasida shaxsiy madaniyati, munosabatlarda javobgarlik xislatlarini namoyon qiladi. Ta'kidlash lozimki, jamiyatning jadal taraqqiyoti, mamlakatimizning innovation rivojlanish tendentsiyalari, demokratik isloxoxtlar chuqurlashuvi natijasida, yosh tadbirkorlar orasida, milliy madaniyatning, mentalitetning muhim jihatlari ular faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda, bu jarayon o'z navbatida, tadbirkorlik sub'ektlari ishini xalqaro darajada e'tirof etish uchun asos bo'lmoqda.

Yangi taraqqiyot bosqichida innovation mazmundagi oilaviy biznes jarayonining metodologik asosi sifatida, sinergetik munosabatda bo'lish, ochiqlik, hamkorlik, o'z-o'zini rivojlantirish omillari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon mazmuni va mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy mushohada qilish, amaliy ahamiyat kasb etadigan xulosa va takliflar chiqarish vazifasini ilgari suradi. Ayniqsa bu jarayon globallashuvning ob'ektiv xususiyatlari, uning jamiyat jadal rivojlanish tendentsiyalari bilan o'zaro bog'liqligi muammosi, tadbirkorning sub'ektiiv faoliyati mazmuni, ishbilarmon mehnatining haqiqiy mazmuni, maqsadi bilan bog'liq tomonlarining

ilmiy falsafiy tahlilini talab qiladi. Globalashuning ishbilarmonlar faoliyatigi ta'sirini o'rganishda uning ko'p omillik xususiyati bilan birgalikda, o'zig xos alohidalik jihatlariga ham e'tibor berish lozim. Bu jarayonda mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanish pallasiga kirganligi, kichik biznes rivojining umim milliy xarakterga ega bo'la boshlaganligi, juning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlik xususiyatlari nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zaro bog'liqlik, jamiyatning modernizasiyalashuvida samaraliy natijalarga olib keladi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayoenda innovation ruhda fikrlash, oilaviy biznes rivojini ta'minlaydi, uning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlaydi, inson faoliyatidagi rolini oshiradi, hamkorlari bilan bo'ladigan ijtimoiy, iqtisodiy mazmundagi faoliyatni yangi ijodiy qirralarga olib chiqadi. Ushbu jarayon o'z navbatida biznes sub'ektlar orasidagi raqobotga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, undan muntazam ogoh bo'lish, bozor iqtisodiyoti munosobatlaridagi o'rnini yo'qotmaslik uchun muayyan, maqsadli harakatni jadallashtirishni talab qiladi. Shu munosobat bilan qayd etish lozimki, globalashuv hozirgi sharoitda, jahonda oilaviy biznes rivojiga, uning tarmoqlar bo'yicha taraqqiyotiga o'zining bevosita, ob'ektiv ta'sirini ko'rsatayotgan, dunyodagi ijtimoiy jarayonlardagi ta'sirchan omillar qatoriga kiradi. Ammo ba'zan tadbirkorlik jarayonida kuzatilayotgan jamoaviy munosobatlar, chegaralanganlik holatlari, kichik biznes sub'ektlarining modernizasiyalashuv, jadallahuvini sekinlashtiradi, ularning raqobotbardoshligini susaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti munosobatlari chuqurlashuvi sharoitida, jamiyatda rivoj topayotgan lokalizasiya va diversifikasiya jarayonlari oilaviy biznes rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, ishbilarmonlikni modernizasiyalashuvining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatda individualashuvning kuchayishi, tadbirkorlikda innovation harakatning faollahuvi, yangi rivojlanish davrida, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy jahbalarida jadallahuv va globalazision omillarning tobora chuqurlashuvidan dalolat beradi. Ta'kidlash lozimki, modernizasiyalashuv jarayonining globalashuvi, o'z navbatda ishbilarmonlik rivojida muhim ahamiyat kasb etadigan, yangi yuqori texnologiyalarning, jumladan axborotlar, kommunikativ, Nanotexnologiyalarning tadbirkorlik sub'ektlariga joriy etish bilan xarakterlanadi. Bunday jarayon o'z navbatida jamiyatda kichik va o'rta biznesning rivojini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

O'z mazmuniga binoan jamiyatning barcha tizimlariga ta'sir o'tkazadi, mamlakatdagi samarali faoliyatning muhim bo'lagiga aylanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ochiq demokratik jamiyat rivojlanmoqda, uning jahon iqtisodiyotiga kirib borishi chuqurlashmoqda, suveren mamlakat jahondagi etakchi, demokratik mamlakatlar qatoriga kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarga globalashuv va jadallahuv omillarining bevosita ta'siri kuzatilmoqda. Bunday jarayon o'z navbatida tadbirkorlikning, bevosita modernizasiyalashayotgan O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy jihatlariga, iqtisodiy takomillashuviga bevosita ijobiy ta'siridagi o'rnidan dalolat beradi. O'zbekistonda keyingi davrida olib borilgan, ilmiy asoslangan, siyosat natijasida, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarni safarbar etyapmiz. "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Juhon bankining "biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik" [3.]

### NATIJALAR

Oilaviy tadbirkorlikni yanala rivojlantirish, uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga alohida e'tibor berish, yoshlarning jamiyatdagi yaratuvchilik faoliyatini uchun barcha imkoniyatlarni kengaytirish, oilaviy biznes sohiblari faoliyatini innlvasion ruhda tashkil etishga yordam berish uchun mamlakatimiz Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligi oilaviy tadbirkorlikning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalar echimga ustuvor ahamiyat sifatida qaratilayotganligan dalolat beradi [4.]. Oilaviy tadbirkorlikda yoshlar ishtirkoining ilmiy tahlili shundan dalolat beradiki, oilaviy tadbirkorlik faoliyati talablari, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan fenomenlar qatoriga kiradi, shuning uchun ham shaxsning ichki resurslarining ijtimoiylashuvida, ishbilarmonlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi, uning raqobotbardoshligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi davrda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismlarini faol tadbirkorlikka jalb etishga alohida

ahamiyat berilmoqda, ularga kam foyizi kreditlar ajratish, kichik biznes faoliyatini boshlash uchun mahalliy hokimyat, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarining bevosita yordamin tashkil etilgan.

Jamiyatning barcha bo'g'inlari vakillarining e'tibori kam ta'minlangan oillarga qaratilgan bo'lib, ularga tizimli yordam ko'stish, ularning ijodiy, intelektual imkoniyatlarini faollishlashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Ushbu jarayonda jamooat tashkilotlari, ya'ni mahalla jamg'armasi, xotin qizlar tashkilo, O'zbekiston yoshlar Ittifoqi va tadbtirkorlik palatasi faoliyatini yanada jadallashtirishga e'tibor berish lozim. Shu maqsadda faqat 2019 yilda O'zbekistonda, "Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi. Amalga oshirayotgan islohotlarni jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri - "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat - "yil mamlakati" deb e'tirof etdi" [3.]. Mamlakatimizda yangi rivojanish bosqichiga xos bo'lgan xususiyatdan biri, ijtimoiy voqealar tizimiga shaffoflik bilan yondoshuv, ochiqlik vaziyatining vujudga keltirilganligidir. Bunday munosobat natijasida ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda hozirgi sharoitda, "hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi etarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Ba'zi odamlar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, deb o'laydi. Bu - bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la echish imkonini bermaydi" [3.].

Jamiyatdagi muhim ijtimoiy muammolardan biri, yoshlar faolligini, ularning islohotlardagi ishtirokini kengaytirish hisoblanadi. Bunday keng qamrovli vazifaning zaminida ijtimoiy sohadagi asosiy muammolardan yana biri, ish joylarini ko'paytirish, yangidan tashkil qilish hisobiga yoshlar orasidagi ishsizlikni kamaytirish, ularning iqtisodiy daromadini oshirishdan iboratdir. Bunday tjarayon o'z navbatida jamiyatda mavjud bo'lgan kambag'alchilik darajasini pasaftirish, ushbu ijtimimoq qatlam vakillarining hayoti darajasini oshirishga qaratilgandir. Bu jarayon uzoq davr ichida oshkora etilmadi, uning ijtimoiy, iqtisodiy sabablar o'rganilmadi, ijtimoiy falsafiy jihatlariga e'tibor berilmadi Shuning natijasida jamiyatda muayyan darajada kambag'alchilik holatlari mavjud bo'ldi, natijada yoshlar orasida ichki va tashqi migrasiya kuchaydi, ishsizlik oshib bordi. Shu munosobat bilan ta'kidlash lozimki, ushbu ijtimoiy masala echimida, oilaviy biznesning o'rniga ham kam e'tibor berildi. Faqat, yangi rivojanish davrida, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalardagi ijtimoiy vaziyat, muhit tubdan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari ishtirokida chuqur o'rganildi, ijtimoiy-falsafiy jihatdan, ushbu ijtimoiy muammoni ilmiy tadqiq qilish boshlandi. Shu munosobat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qayd etadiki, "Kambag'allikni kamaytirish - bu aholida tadbirdorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinnari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir" [3.]. Muammoning echimiga kompleks yondoshuv natijasida, inson faktoriga, ya'ni uning manfaatlari echimiga, davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatining uyg'unligi talab qilinishiga e'tibor qaratildi.

## MUHOKAMA

Muammoning shakllanishi, hozirgi kundagi holatinin kompleks, ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil etish natijasida ma'lum bo'ldiki, kambag'allik chegarasida yashayotgan aholi vakillari sifatli ta'lif olishga, jamiyatda yuqori obro'ga olib keladigan kasblarga qiziqmaganligi, o'zining xususiy tadbirdorlik ishini tashkil qilmaganligi natijasida shunday ahvolga tushgan. Shuningdek, kambag'allar orasida boshqalardan yomon yashamaslikga intilish harakati sust bo'lganligi kuzatiladi. Shu bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti munosobatlari tobora chuqurlashayotgan davrda ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan ta'aminlangan, o'ziga to'q oilalar, tadbirdorlar vakillari, jamiyatdagi muhim ijtimoiy guruh sifatida tadbirdorlik bilan shug'ullanganligi, o'z biznesiga egaligi, tufayli ijtimoiy turmushda muayyan o'ringa egaligini ta'kidlaydilar.

Demokratik islohotlar chuqlashuvi, jamiyat hayotining jadallahsuvi, tarmoqlarning modernizasiyalashuvi, mavjud institusional tizimlar shakllari faoliyatini, hozirgi tadbirdorlik mazmuni, unga aloqadorlik munosobati nuqtai nazaridan tadqiq qilish, tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shu munosobat bilan qayd etish lozimki, tadbirdorlik sub'ektlari faoliyatiga xos bo'lgan

xususiyatlarni, ya'ni rivojlangan mamlakatlar tajribasini to'ridan to'g'ri ko'chirib olish mumkin emas, faqat undan tajriba sifatida foydalanish mumkin. Bu erda milliy xususiyatlar, mahalliy hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy voqelik, ijtimoiy imkoniyatlar, mavjud resurslar, ijtimoiy tajriba, samarali faoliyatning yo'nalişlarini ta'minlagan omillar, shuningdek mavjud bo'lgan kamyalliklar tahlili muhim rol o'yndaydi.

Ta'kidlash lozimki, mavzuning ijtimoiy-falsafiy tahlili ko'rsatadiki, tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlikning jamiyatdagi samarali rivojida muayyan qrarama qarshiliklar ham mavjud. Shuning uchun ham ushbu jarayon, tubdan o'zgartirishga molik bo'lgan muammolar echimini, ushbu jarayonni ijtimoiy maqsaddagi islohotlarga bo'ysindirishni, ushbu jarayon mazmunida milliy manfaatlar, ya'ni tadbirkorlik maqsadlarini iqtisodiyotning strategik rivojlanish tendentsiyalariga bo'ysindirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shu munosobat bilan yangi rivojlanish davrida, mamlakatning modernizasiyalashuvi, jadal taraqqiyot bosqichiga o'tish jarayoni, iqtisodiy taraqqiyot, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik ishini yangi bosqichga olib chiqishda, ushbu faoliyatni islohotlar kesimida samarali tashqil etishda davlatning rahbarlik rolini alohida ta'kidlash lozim. Bunday sharoit, jamiyat a'zolari ichida, ular orasida bo'ladigan ijtimoiy munosobatlarga ta'sir qiladigan holatlar, ya'ni bozor iqtisodiyoti munosobatlari chuqurlashuvi davrida ijtimoiy tabaqlanish, shaxslar orasidagi mulkiy, ijtimoiy ruhiy notenglikning shakllanishi jarayonini bosib o'tishni taqoza qiladi. Yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy holat, muhit har bir tadbirkor faoliyatida, uning ijtimoiy hayot tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu kontseptual ahamiyatga molik muammolar echimi, jamiyatda gi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining yuqori bosqichga chiqishi, kichik bizne, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining tobora kengayishi bilan bog'liq jarayondir.

### XULOSA

Taraqqiyotning yangi bosqichda jamiyat rivojini barqaror ta'minlaydigan omillar rivojini ta'minlashga davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatidagi uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosobat bilan tadbirkorlikning jahondagi amaliyotda mavjud bo'lgan shakli, oilaviy biznes rivojini ta'minlaydigan mexanizmlarni yanada takomillashtirish lozim. Oilaviy tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish tendentsiyalariga ijobiy ta'sir etuvchi omillar qatoriga, inson, har bir oila a'zosining chuqur bilimga, maxsus mutaxasislikga ega bo'lishi, ushbu tadbirkorlik mazmuni, shakliga oid maxsus ko'nikmalar bilan qurollanganligi amaliy ahamiyatga egadir. Tadbirkor faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydigan faktorlardan biri jahondagi etakchi mamlakatlar tadbirkorlik sub'ektlari, jumladan oilaviy biznesni rivojlantirish manbalari, omillari, sub'ektiv jarayonlar, oilaviy biznesni tarqiqiy ettirishda uchraydigan ijtimoiy, tashkiliy ahamiyat kasb etuvchi muammolar echimini topish mexanizmlarini o'rganish zaruriyati mavjud. Ushbu jarayon muayyan darajada o'zgarib turuvchi inson faktori, uning tadbirkorlikka oid bilim va tajribasini oshirishga muntazam intilish, shaxsning samarali faoliyatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda oilaviy biznes rivojlanish jarayonidagi o'ziga xoslik jihatlarini, milliy madaniyatimiz tarixiga, milliy urf-odatlarga chambarchas bog'liq jihaitlariga e'tiborni kuchaytirish, oilaviy biznesning samarali natijalarini ta'minlovchi jihatlarini chuqurlashtirish, rivojlantirish lozim. Mukammoning rivoji va echimiga bunday munosobat zaruriyati O'zbekistonning tobora jahon hamjamiyatiga kirib borish jarayonining kuchayganligi, uning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'r'in olishga bo'lgan harakatining strategik ahamiyat kasb etadigan vazifaga aylanganligi va tadbirkorlik haraktida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga bo'lgan intilishning globallashuv davriga xos bo'lgan xususiyatligi bilan xarakterlanadi. Oilaviy biznes inson intelektual imkoniyatlarini yanada kengroq, batafsil namoyish etadigan imkoniatdir. Shu munosobat bilan oilaviy biznes sub'ektlari soni ning oshib borishi, ular faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy jabhalarga chuqur qamrab olinishi, oilaviy korxonalarning ko'payishi, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarning raqobotbardoshligini oshiradi, jamiyatning iqtisodiy asoslарini mustahkamlaydi, ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiradi, inson manfaatlariga xizmat qiladi, uning ijtimoiy manfaatlari echimiga ijobiy yordam beradi.

Oilaviy biznes rivoji uchsun xuquqiy asoslarni yanada mustahkamlash, otla ishbilarmonligida qatnashayotganlarning malakasini oshirish choralariniko'rish, ushbu jarayonda tadbirkorlik palatasi, nodavlat notijorat tashkilotlar, davlat idoralari, mahalliy xokimiyatlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Oilaviy biznes faoliyatida vujudga kelgan xizmatlar mazmunini, ishlab chiqarilayotgan tovarlar, shuningdek ularning takomillashuv

jarayonini ommaviy axborot vositalari va boshqa reklama tashkilotlari faoliyatidan foydalanilgan holda, regionlar va respublika mashtabida tizimli yo'lga qo'yish lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. - Toshkent. "O'zbekiston" NMIU. 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". - Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga murojaati.  
<http://uga.uz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "oilaviy tadbirdorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.  
<http://uga.uz/oz/documents/oilaviy-tadbirdorlikni-rivozhantirish-davlat-dasturlari-doi-25-10-2019>
5. Ganiev, B. (2018, May). Философский анализ культуры предпринимательства. In Proceedings of the XXIII World Congress of Philosophy (Vol. 49, pp. 79-84).
6. Ganiev, B. S. O'zbekiston Respublikasida tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari. ILMIY XABARNOMA, 49.